

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

UDK: 336.713:005(575.1)

POYONOV BOBIR BEKMUROD O‘G‘LI

**TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARINING
LIKVIDLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

Ixtisoslik: 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

iqtisodiyot falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. N.R.Kuziyeva

Toshkent – 2025-yil

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA IQTISODIY JIHATLARI.....	11
1.1-§.	Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidliligini oshirishning nazariy asoslari hamda funksional jihatlari.....	11
1.2-§.	Tijorat banklari likvidliligini oshirish va instrumentlarining zarurati hamda ularning ahamiyati.....	23
1.3-§.	Tijorat banklarining likvidliligini ta'minlashdagi ilg'or xorij tajribalaridan mamlakatimiz banklarida tadbiq etish yo'llari.....	35
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	47
II BOB.	TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI TAHLILI.....	49
2.1-§.	Tijorat banklari to'lov qobiliyatining amaldagi holati tahlili.....	49
2.2-§.	Tijorat banklarining likvidliligini tartibga solish amaliyotining zamonaviy holati tahlili.....	58
2.3-§.	Tijorat banklari likvidliligini mustahkamlashning ekonometrik tahlili.....	76
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	89
III BOB.	TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	91
3.1-§.	Tijorat banklari likvidliligini oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	91
3.2-§.	Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidliligini oshirishni takomillashtirish yo'llari.....	116
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	124
	XULOSA.....	125
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	129

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligidan nafaqat tijorat banklari, balki Markaziy banklar ham kuchli va tabiiy jihatdan manfaatdor hisoblanadi. Biroq, jahon iqtisodiyotidagi global beqarorlik ta'sirida keyingi yillarda xalqaro moliya institutlarida har 5-10 yilda ro'y beradigan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar dunyoning barcha mamlakatlari banklari moliyaviy munosabatlarida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, "dunyo miqyosida global moliyaviy inqirozdan oldin, 93 mamlakatda chorak asr mobaynida moliyaviy muassasalarda 117 marta tizimli va 50 dan ortiq jiddiy moliyaviy muammolar yuz berdi".¹ Mazkur inqiroz holatlari milliy va xalqaro darajada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning tijorat banklarini transformatsiyalash jarayonida likvidlilikni ta'minlash yuzasidan aniq talablar qo'yishni taqozo etadi.

Jahon bank amaliyotida tijorat banklari likvidlilikini tartibga solish bo'yicha qator talablar, me'yorlar va tamoyillarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirgan. Ushbu tadqiqotlarda tijorat banklari likvidlili bilan bog'liq riskni kamaytirish, likvidlilikni tartibga solish va ta'minlash, uni aniqlashni hamda raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari likvidlilikini tartibga solishda kutilmaganda talablarni bajarish, yuqori likvidli va barqaror mablag'lar bilan ta'minlash kabi masalalar o'zining ilmiy yechimini topmagan. Xususan, banklarning riskli aktivlari va muddatli mablag'lari o'rtasida muvozanatni buzilishi, banklarning likvid mablag'larga bo'lgan talabini zudlik bilan qondirilmasligi, likvidlilikni tartibga solishda bozor instrumentlaridan foydalanmasligi kabi masalalar ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

¹ Financial stability: 10 questions and about seven answers. Speech delivered by Mr Jaime Caruana, General Manager of the BIS, at the 50th Anniversary Symposium of the Reserve Bank of Australia, Sydney, 9 February 2010. <https://www.bis.org/speeches/sp100209.htm>

O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy barqarorligi, aholi va real sektorni kreditga bo'lgan talabini qondirish hamda mijozlar oldidagi majburiyatlarni to'liq va to'xtovsiz bajarilishi amalga oshirilayotgan islohotlarda, "... bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining talablariga asosan, tijorat banklarining mablag'lari yetarliligi va likvidliligi darajasini qo'llab-quvvatlash"² vazifasi belgilab qo'yilgan. Biroq, depozitlarning asosiy ulushini muddatsiz depozitlar tashkil etadi, aktivlar tarkibida hukumatning va Markaziy bankning yuqori likvidli aktivlari deyarli shakllanmagan, bankning depozit, kredit, foiz siyosatlarining amalda samarali emasligining ilmiy jihatdan asoslab berish va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish respublikamiz bank tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda

² "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Banklar to’lov qobiliyatini mustahkamlashning ayrim nazariy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlar Dj.Sinki, P.Rouz, E.Dj.Dolan, Kris Dj.Barltrop, D.Mak Noton, O.Lavrushin, I.Larionova, V.Usoskin, V.Kolesnikov, G.Panovalarning, Christa H.S. Bouwman, Òscar Jordà, Björn Richter, Moritz Schularick, Alan M. Taylorlarning, Javier Bianchi, Saki Bigiolarning, Natacha Valla, Béatrice Saes-Escorbiac, Muriel Tiessetlarning³ ilmiy asarlarida kuzatish mumkin.

O’zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.T.Berdiyarov, T.I.Bobaqulov, T.M.Qoraliev, A.A.Omonov, O.B.Sattarov, B.B.Izbosarov, A.Y.Abdullayev⁴ ilmiy tadqiqotlarida va asarlarida tijorat banklari likvidligini boshqarish, resurslarini shakllantirish, bank aktivlari hamda passivlarini samarali boshqarish kabi masalalar atroflicha tadqiq qilingan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidligini oshirish masalalari kompleks va tizimli

³ Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрий финансовых услуг, пер. с англ.- Дж. Синки, М. Алтана Бизнес букс, 2007-1018 с.; Роуз П.С. Банковский менеджмент. - М.: Дело-ЛТД. 1995.-743 с. Philip Davis, E. (2009); Долан Э. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Пер.с англ. – М.: Кемпбелл, 1996-448 с; Колесников В. и др. Банковское дело. – М.: “Финансы и статистика”. 1995-480 с. Панова Г. Кредитная политика коммерческого банка. М: МКЦ, 1997-464 с. Усоскин В. современный коммерческий банк: управление и операции. –М.: Антидар, 1998-320 с. Ларинова И. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. – М.: “Консалтбанкпир”, 2003-272 с. Лаврушин О. Банковское дело. Учебник. 2-е издание. – М.: Финансы и статистика, 2005-672 с. Christa H.S. Bouwman. Liquidity: How Banks Create It and How It Should Be Regulated. Forthcoming in The Oxford Handbook of Banking (2nd edition; A.N. Berger, P. Molyneux, and J.O.S. Wilson (eds.)) Case Western Reserve University and Wharton Financial Institutions Center October 2013. P. 29-31. Òscar Jordà, Björn Richter, Moritz Schularick, Alan M. Taylor . Bank Capital Redux: Solvency, Liquidity, and Crisis. Federal Reserve bank of san Francisco working paper series. March 2017. P. 33-35. Javier Bianchi Saki Bigio. Banks, liquidity management and monetary policy. National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 September 2014. Working Paper 20490 <http://www.nber.org/papers/w20490> P. 21-25. Natacha Valla, Béatrice Saes-Escorbiac and Muriel Tiesset. Bank liquidity and financial stability, Irving Fisher Committee on Central Bank Statistics/IFC Bulletin No 28. August 2008 P. 41-42.

⁴ Berdiyarov B.T. Tijorat banklarining likvidligini ta’minlash masalalari dis. avt. –T.: 2020, BMA, 46 б., Bobaqulov T.I. O’zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo’llari. i.f.d. ilm. daraja. olish uchun baj. dis. avt. –T.: 2008, BMA, 36 б., Qoraliev T.M. Sattarov O.B. va boshqalar. Tijorat banklari faoliyati tahlili. O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2013. 192 б. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. i.f.d. ilm. daraja. olish uchun baj. dis. avt. –T.: 2008, BMA, 36 б. B.B.Izbosarov Raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari likvidligini tartibga solish dis. avt. –T.: 2019.

tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarining tijorat banklarining likvidligiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish va ularning huquqiy asoslarini baholash;

tijorat banklarining likvidligini ilg'or xorijiy tajriba asosida mahalliy amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni amaliyotdagi holatini tahlil qilish va tegishli xulosalarni shakllantirish;

tijorat banklari likvidliligini ta'minlashning ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidliligini tartibga solish muammolarini aniqlash va ularning yechimlari yuzasidan tavsiyalar yaratish;

raqamli iqtisodiyotda bank likvidliligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari olingan.

Tadqiqotning predmeti transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidliligini mustahkamlashda vujudga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, korrelyatsiya va regressiya, qiyoslash va guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida barqarorlik indeksining "past daraja" ($10,5 \leq \text{BBI} \leq 19,6$), "o'rta daraja" ($5,3 \leq \text{BBI} \leq 10,4$), "yuqori daraja" ($1 \leq \text{BBI} \leq 5,2$) qiymatlarini qo'llash orqali aktivlarning rentabelligini barqaror darajasini ta'minlash taklifi asoslangan;

oddiy aksiyalar chiqarish orqali jalb qilingan mablag'larning belgilangan ulushini yuqori likvidli, risk darajasi past aktivlarga va tez mobilizatsiya qilinadigan likvid aktivlar portfeliga maqsadli ravishda joylashtirish orqali joriy va lahzalik likvidliligini uzluksiz ta'minlash taklifi asoslangan;

tijorat banklari likvidlilik darajasining o'rtacha koeffitsiyenti "xavfsiz" (1,20 dan 1,26 gacha) hamda "xavfli" (1,18 dan 1,15 gacha) ehtimollik qiymatlarini konseptual model orqali baholash yo'li bilan likvidlilik darajasini mustahkamlash bo'yicha taklifi asoslangan;

O'zbekistondagi tijorat banklarida likvidlilikni ta'minlash samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari likvidliligini mustahkamlashning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda BBI indikatoridan foydalanish orqali aktivlarning rentabellik darajasini aniqlash va ularni mos ravishda boshqarish imkoniyati yaratilish orqali bank resurslarining samarali joylashtirilishi shakllantirilgan;

tijorat banklari ustav kapitalini oddiy aksiyalar chiqarish orqali oshirish natijasida banklarning kapital bazasi mustahkamlanib, joriy va lahzalik likvidlilik ko'rsatkichlarini barqaror ushlab turish imkoniyati ishlab chiqilgan;

tijorat banklari likvidlilik darajasini konseptual model asosida baholash natijasida banklarning likvidlik koeffitsiyentlari bo'yicha xavfsiz (1,20–1,26) va

xavfli ehtimollik (1,15–1,18) oraliqlari aniqlanib, ularga nisbatan baholash tizimi ishlab chiqilgan;

ekonometrik model asosida aniqlangan omillarning o‘zaro bog‘liqligi 2030-yilgacha bank likvidligini bashorat qilish va barqaror moliyaviy boshqaruv choralarini belgilash asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tadqiqot ishida qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalar orqali, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, yirik xorijiy banklar va O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari statistik ma’lumotlari tahlili natijalariga asoslanganligi hamda tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining transmission mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy qo‘llanma va ko‘rsatmalarni ishlab chiqish, mazkur muammoga bag‘ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublika tijorat banklarining likvidligini oshirish, ularning barqaror faoliyatini ta’minlash hamda transformatsiyalash jarayonida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidligini oshirish yo‘llari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarining to‘lov qobiliyatini ta’minlash maqsadida barqarorlik indeksining “past daraja” ($10,5 \leq \text{BBI} \leq 19,6$), “o‘rta daraja” ($5,3 \leq \text{BBI} \leq 10,4$), “yuqori daraja” ($1 \leq \text{BBI} \leq 5,2$) qiymatlarini qo‘llash orqali aktivlarning

rentabelligini barqaror darajasini ta'minlash taklifi "Turonbank" ATBning "Bankni rivojlantirish strategiyasi"ning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Turonbank" aksiyadorlik-tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning natijasida 2025-yilda 2024-yilga nisbatan "Turonbank" ATB passivlari hajmida reguliyativ kapitalning salmog'i 4,8 foizli punktga oshgan, sof foydaning o'sishini jami aktivlarning o'sishidan yuqoriligi 37,5 foizni tashkil qilgan;

oddiy aksiyalar chiqarish orqali jalb qilingan mablag'larning belgilangan ulushini yuqori likvidli, risk darajasi past aktivlarga va tez mobilizatsiya qilinadigan likvid aktivlar portfeliga maqsadli ravishda joylashtirish orqali joriy va lahzalik likvidliligini uzluksiz ta'minlash taklifidan ATB "Turonbank" tomonidan bank likvidliligini boshqarish siyosatini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida bankning yuqori likvidli aktivlari ulushi jami aktivlar tarkibida 2025-yil 1-aprel holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 foizga oshgan, bu o'z navbatida bankning joriy va lahzali likvidligi talabini, mos ravishda 1,2 va 1,3 koeffitsiyentda ta'minlash imkonini bergan;

tijorat banklari likvidlilik darajasining o'rtacha koeffitsiyenti "xavfsiz" (1,20 dan 1,26 gacha) hamda "xavfli" (1,18 dan 1,15 gacha) ehtimollik qiymatlarini konseptual model orqali baholash yo'li bilan likvidlilik darajasini mustahkamlash bo'yicha taklifi ATB "Turonbank" amaliyotiga joriy etilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma'lumotnomasi). Mazkur taklif asosida 2024-2025-yillar oralig'idagi oylik ma'lumotlar asosida tijorat banklarining likvidlilik koeffitsiyenti 2025-yilda 2024-yilga nisbatan mos ravishda 5 foizga o'sishiga erishilgan;

O'zbekistondagi tijorat banklarida likvidlilikni ta'minlash samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari likvidliligini mustahkamlashning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki 2030-

yilga mo'ljallangan bank umumiy strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan va amaliyotga joriy qilingan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma'lumotnomasi). Mazkur taklif asosida tijorat banklari joriy likvidlilik koeffitsiyenti 2,5; 3,4 va 3,7 foizga o'sishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta ilmiy maqola (shundan 1 ta nufuzli xorijiy), boshqa ilmiy nashrlar hamda xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta maqola va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 betni tashkil etadi.